LEGAL BASIS OF INVESTMENTS AND INVESTMENT ACTIVITY: ANALYSIS OF NATIONAL LEGISLATION

Zaripov Jurabek Sodikovich
Bukhara State University Faculty of History and Law
Jurisprudence 3rd year student
jurabekzaripov7@gmail.com

Annotation. This thesis analyzes the legal basis of investments and investment activity. It covers regulatory and legal documents regulating investment activity, legal guarantees aimed at protecting the rights and legitimate interests of investors, and mechanisms for state support of investment activity. Also, the legal factors of improving the investment climate, the role of investment activity in economic development, and the significance of current legislation in this area are scientifically and theoretically analyzed.

Keywords: investment, investment activity, investment law, investor, investment environment, legal guarantees, regulatory and legal documents, state support, investment policy.

Kirish

Bugungi kunda davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyatining oshishi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi ko‘p jihatdan investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishiga bog‘liq. Investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sishning muhim omili, balki tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Investitsiya munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish, investorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda qulay investitsiya muhitini shakllantirish zamonaviy huquq tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish hamda investitsiya jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur jarayonda investitsiya faoliyatining aniq huquqiy asoslarini belgilash, davlat va investor o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari fuqarolik, tadbirkorlik va moliya huquqi normalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hujjatlari orqali amalga oshiriladi.

Shu nuqtayi nazardan, investitsiyalar va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Mazkur tezisda investitsiyalar va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari, investorlarning huquqiy maqomi, investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari hamda ushbu sohadagi qonunchilikning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Ilmiy adabiyotlarda “investitsiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, “investitsiya” atamasi ingliz tilidagi “investment” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, kapitalni joylashtirish yoki mablag‘larni yo‘naltirish ma’nolarini anglatadi. [1]. Shuningdek, mazkur atamaning kelib chiqishi lotin tilidagi “invest” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, mablag‘larni sarflash yoki muayyan faoliyatga kiritish mazmunini ifodalaydi. [2].

Investitsiya tushunchasi iqtisodiy va huquqiy jihatdan keng mazmunga ega bo‘lib, foyda olish maqsadida aksiyalar, obligatsiyalar kabi moliyaviy vositalarni xarid qilish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun zarur bo‘lgan moddiy aktivlarni qo‘lga kiritishni qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiyalar mablag‘larning qiymatini saqlash yoki oshirishga hamda kelgusida daromad olishga xizmat qiluvchi vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. [3].

Huquqiy jihatdan investitsiya investor tomonidan foyda olish maqsadida tavakkalchilik asosida ijtimoiy, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat obyektlariga yo‘naltiriladigan moddiy va nomoddiy boyliklar, shuningdek, ularga bo‘lgan huquqlarni anglatadi. Bunda intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar ham investitsiya tarkibiga kirishi mumkin. [4].

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida ham investitsiyalar tushunchasi keng yoritilib, ular tadbirkorlik va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar, ularga bo‘lgan huquqlar hamda qayta investitsiyalar sifatida e’tirof etiladi. [5].

Shunday qilib, investitsiya tushunchasi faqatgina moliyaviy mablag‘larni kiritish bilan cheklanmaydi, balki iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan turli xil aktivlar va ularga bo‘lgan huquqlarni muayyan maqsad asosida joylashtirishni ham qamrab oladi. Shu sababli investitsiya munosabatlarini samarali huquqiy tartibga solish investorlarning manfaatlarini himoya qilish va qulay investitsiya muhitini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Huquqiy nuqtayi nazardan investitsiya muayyan huquqiy munosabatlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Investitsiya faoliyati investorlar, davlat organlari hamda boshqa ishtirokchilar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni qamrab oladi. Ushbu munosabatlar qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va shartnomalar asosida tartibga solinadi. Investitsiya faoliyatining huquqiy mazmuni unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilash, investorlarning manfaatlarini himoya qilish hamda investitsiya jarayonining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, investitsiyaning huquqiy mohiyati uni himoya qilish va unga beriladigan kafolatlarda ham namoyon bo‘ladi. Davlat tomonidan taqdim etiladigan investitsiyalarni himoya qilish, mulkning daxlsizligini ta’minlash, investorlar uchun teng shart-sharoitlar yaratish kabi huquqiy kafolatlar investitsiya muhitining barqarorligini mustahkamlaydi. Natijada investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy asos shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasiga ko‘ra, investitsiyalar yo‘naltirilish obyektlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

Kapital investitsiyalar - asosiy fondlarni (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa obyektlarni) yaratish, qayta tiklash, modernizatsiya qilish, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan investitsiyalardir.

Moliyaviy investitsiyalar - aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma obligatsiyalari, davlat obligatsiyalari hamda boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarga kiritiladigan investitsiyalardir.

Ijtimoiy investitsiyalar - inson salohiyatini, bilim va ko‘nikmalarni, ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek, boshqa nomoddiy manfaatlarni shakllantirishga qaratilgan investitsiyalardir.

Investitsiyalarning bunday tasnifi mablag‘larning qaysi yo‘nalishga yo‘naltirilishini belgilaydi va ularning har biri iqtisodiyotda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kapital investitsiyalar investitsiyalarning eng keng tarqalgan va ko‘zga ko‘rinadigan shakli hisoblanadi. Ularning asosiy mazmuni asosiy vositalarni yaratish, qayta tiklash, modernizatsiya qilish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashda namoyon bo‘ladi. Mazkur turdagi investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, yangi zavodlar, elektr stansiyalari, yo‘llar va ko‘priklar qurish, shuningdek, eskirgan uskunalarni zamonaviy avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari bilan almashtirish kapital investitsiyalarga misol bo‘la oladi.

Moliyaviy investitsiyalar esa real ishlab chiqarish sohasiga emas, balki moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar bozoriga yo‘naltiriladi. Ularning mohiyati aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma obligatsiyalari, davlat obligatsiyalari hamda boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur investitsiyalar kapitalni ko‘paytirish, dividend yoki foiz shaklida daromad olish hamda iqtisodiy tavakkalchiliklarni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy investitsiyalar bevosita moddiy boylik yaratmasa-da, iqtisodiyotning eng muhim resursi bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirishga qaratiladi. Ularning mohiyati inson salohiyatini, kasbiy ko‘nikmalarni, ishlab chiqarish tajribasini hamda boshqa nomoddiy aktivlarni rivojlantirishdan iborat.

Ijtimoiy investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va jamiyatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xodimlarning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, IT parklarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish hamda ta’lim muassasalariga mablag‘ yo‘naltirish ijtimoiy investitsiyalarga misol bo’la oladi.

Investitsiyalar boshqa mezonlarga ko‘ra ham tasniflanadi. Jumladan, ular *markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan* investitsiyalarga bo‘linadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar odatda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida jalb etilgan xorijiy investitsiyalar, kreditlar va qarz mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida boshqariladi. Ushbu investitsiyalar asosan milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarida davlat dasturlarini amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro kelishuvlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Davlat budjeti hamda davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish to‘g‘risidagi qarorlar O‘zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan tegishli kelishuvlar asosida qabul qilinadi.

Markazlashtirilmagan investitsiyalar esa investorlarning o‘z mablag‘lari, bank kreditlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi kafolatisiz xorijiy banklardan olingan kreditlar hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshiriladi. Mazkur investitsiyalarni boshqarish investor tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga ko‘ra, investitsiyalarni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxslarni tashkil etishda yoki ularning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulush asosida ishtirok etish, shu jumladan mol-mulk va aksiyalarni (ulushlarni) sotib olish orqali ishtirok etish;
- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan qarz majburiyatlarini sotib olish;
- tabiiy resurslarni qidirish, o‘zlashtirish, qazib olish yoki ulardan foydalanish bo‘yicha konsessiyalarni qo‘lga kiritish, shuningdek, mahsulot taqsimoti to‘g‘risidagi bitimlarda ishtirok etish;
- mulkiy huquqlarni, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni, mualliflik huquqlarini, patentlarni, tovar belgilarini, foydali modellarni, sanoat namunalarini, firma nomlarini, nou-xau hamda gudvillni qo‘lga kiritish;
- yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni, boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish huquqini hamda ulardan foydalanish huquqlarini olish.

Shuningdek, investorlar qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa shakllarda ham investitsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq investor quyidagi huquqlarga ega: [6]

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirish, shuningdek, investitsiyalarning hajmi, turlari, shakllari, sohalari va yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilash;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;
- o‘z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish, shuningdek, investitsiya faoliyati natijalarini sotish hamda eksport qilish;
- soliqlar, yig‘imlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan so‘ng investitsiya faoliyatidan olingan daromadlarni mustaqil va erkin tasarruf etish;

- o‘ziga tegishli mol-mulk va mulkiy huquqlardan, shu jumladan qarz mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarishda barcha turdagi majburiyatlar bo‘yicha garov sifatida foydalanish;

- investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilingan taqdirda adolatli kompensatsiya olish;

- kreditlar va qarz mablag‘larini jalb qilish;

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

Shu bilan birga, investor zimmasiga muayyan majburiyatlar ham yuklanadi. Jumladan, investor:

- soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi;

- investitsiyalar bilan bog‘liq holda o‘z zimmasiga olgan shartnomaviy majburiyatlarni bajarishi;

- qonunchilik talablariga, shu jumladan raqobat, korrupsiyaga qarshi kurashish, investitsiyalar va investitsiya faoliyati, mehnat, shaharsozlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, texnik xavfsizlik hamda sanitariya normalari va qoidalariga rioya qilishi;

- shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida investitsiya faoliyati ishtirokchilariga yetkazilgan zararni qoplashi;

- vakolatli davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida belgilangan talablarni bajarishi shart.

Mazkur huquq va majburiyatlar investitsiya munosabatlarida investorlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlash hamda investitsiya jarayonining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Investitsiya faoliyatida muammolar va nizolarni hal etish usullari

Xalqaro shartnomalarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, xorijiy investorlar ularning fuqaroligi, yashash joyi, diniy e’tiqodi, xo‘jalik faoliyati amalga oshiriladigan joyi, shuningdek, investor yoki uning investitsiyasi mansub bo‘lgan davlat asosida kamsitilishi mumkin emas. [7].

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z qonuniy vakolatlarini amalga oshirish jarayonida xorijiy investor tomonidan qonunchilik talablari buzilganligini aniqlagan taqdirda, faqat o‘z vakolatlari doirasida hamda aniqlangan huquqbuzarlikni bartaraf etishga bevosita bog‘liq choralarni ko‘rishi mumkin. Bunda davlat organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqbuzarlik sodir etilganligi holatidan xorijiy investorning boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun foydalanishga haqli emas.

Xorijiy investorlarni himoya qilish bo‘yicha umumiy kafolatlar va choralar bilan bir qatorda, qonunchilikda qo‘shimcha himoya mexanizmlari ham belgilanishi mumkin. Jumladan, xorijiy investorlar oldidagi majburiyatlarning hamkorlar tomonidan so‘zsiz bajarilishini ta’minlash kafolatlari hamda investorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan boshqa choralar nazarda tutilishi mumkin.

Xorijiy investorning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi investitsiya faoliyati davomida yuzaga keladigan xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq nizolar (investitsiya nizolari) dastlab muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Agar nizo taraflari uni muzokaralar orqali bartaraf eta olmasa, ushbu nizo mediatsiya tartibida hal qilinishi lozim. [8].

Muzokaralar va mediatsiya orqali hal etilmagan investitsiya nizolari O‘zbekiston Respublikasining tegishli sudlari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki investor bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida tuzilgan shartnomada amaldagi arbitraj sharti mavjud bo‘lsa, investitsiya nizosi xalqaro arbitraj tartibida hal qilinishi mumkin. [9].

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya nizosini xalqaro arbitraj orqali hal etishga roziligi faqat imzolangan va kuchga kirgan xalqaro shartnomalar yoki investor bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida tuzilgan shartnomada xalqaro arbitrajga murojaat qilish to‘g‘risida nazarda tutilgan yozma rozilik asosida ifodalanadi.

Xulosa

Investitsiya faoliyati zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi mustahkam huquqiy asoslar, investorlar huquqlarining kafolatlanishi hamda davlat tomonidan yaratilgan qulay investitsiya muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya munosabatlari nafaqat iqtisodiy, balki muayyan huquqiy munosabatlar tizimi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Mazkur munosabatlar investorlar, davlat organlari va boshqa ishtirokchilar o‘rtasida vujudga kelib, qonunchilik hujjatlari hamda shartnomaviy asoslar orqali tartibga solinadi.

Investitsiyalarning huquqiy mohiyati, avvalo, investorlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash, ularning manfaatlarini himoya qilish, mulk daxlsizligini ta’minlash hamda investitsiya jarayonining barqarorligini kafolatlashda namoyon bo‘ladi. Investitsiyalarni kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga ajratish ularning iqtisodiyotdagi vazifasi va yo‘nalishini belgilash imkonini beradi. Shuningdek, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan investitsiyalar shakllari davlat hamda xususiy sektor ishtirokidagi investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko‘rsatadiki, investorlarga investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirish, shartnomalar tuzish, investitsiyalardan foydalanish va ularni tasarruf etish, olingan daromadlarni mustaqil boshqarish kabi keng huquqlar berilgan. Shu bilan birga, investorlar qonunchilik talablariga rioya qilish, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni amalga oshirish, shartnomaviy majburiyatlarni bajarish hamda investitsiya faoliyati ishtirokchilariga yetkazilgan zararni qoplash kabi majburiyatlarga ega.

Investitsiya faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni samarali hal etish ham mazkur sohaning muhim jihatlaridan biridir.

Investitsiya faoliyatining rivojlanishi faqat iqtisodiy manfaatlar bilan emas, balki mukammal huquqiy tartibga solish tizimi bilan ham belgilanadi. Investorlarning huquqlarini ishonchli himoya qilish, nizolarni samarali va adolatli hal etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda investitsiya faoliyati uchun barqaror huquqiy sharoit yaratish mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xo'jalik (Tadbirkorlik huquqi) //Mualliflar Jamoasi: Ibratov B.I., Nasriyev I.I. Burxanxodjayeva X.V. va boshq.: Mas'ul mugarrir: Otaxonov F.H /.T.: Toshkent Davlat yuridik in-ti. 2003. - 466b. Toshkent davlat yuridik instituti, 2007-yil. 259-b.
2. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №1, 2025 yil ISSN: 2181-9874 SJIF 2022: 6.698 – INVESTITSIYA TUSHUNCHASI: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA KONSEPTUAL ASOSLAR. 154-,155-b. *Temur Shoydullayevich Rahmatov* – www.sharqjurnali.uz
3. “Law of the Republic of Uzbekistan on Investments and Investment Activity” Article-3,5,6,10, 61,62,63. http://lex.uz//ru/docs/-4664142
4. Tadbirkorlik (biznes huquqi) (darslik)/ mualliflar jamoasi - T.: TDYU, 2019. – 173-182-b.